



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 139-149 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINI TARAQQIY QILDIRISHNING XORIJ TAJRIBASI



Achilova Firuza Kurbanovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning turli davlatlarning xorij tajribasi yoritilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish tajribasini mamlakatimiz sharoitida qo'llash yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqa, mintqa iqtisodiyoti, xizmat, xizmatlar sohasi, tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматривается зарубежный опыт различных стран в развитии сектора услуг в контексте устойчивого развития региональной экономики. Также представлены выводы о применении опыта развития сектора услуг в нашей стране.

Ключевые слова Регион, региональная экономика, услуги, сектор услуг, опыт.

Abstract. This article discusses the foreign experience of various countries in developing the service sector in the sustainable development of the regional economy. It also presents conclusions on the application of the experience of developing the service sector in our country.

Key words. Region, regional economy, service, service sector, experience.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish masalasi har bir davlatning uzoq muddatli strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tishda an'anaviy sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sektori mintqa yalpi hududiy mahsulotining oshishi, aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi xizmatlar sohasining mintaqaviy barqaror rivojlanishdagi o'rni tobora ortib borayotganini tasdiqlamoqda. Moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turizm, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, innovatsion va raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi mintqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, institutsional mexanizmlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Yevropa Ittifoqi

davlatlarida xizmatlar klasterlarini shakllantirish, Osiyo mamlakatlarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish, AQSh va Yaponiya tajribasida esa biznes va professional xizmatlar ulushini oshirish orqali hududiy iqtisodiyotlar samaradorligi kuchaytirilgan. Ushbu tajribalar xizmatlar sohasini mintaqaviy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda xizmatlar sohasining mintaqalar bo'yicha notekis rivojlanishi, xizmatlar sifati va ularga kirish imkoniyatidagi tafovutlar barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat xizmatlar sektorini rivojlantirishda xorijiy tajribani chuqur o'rganish, ilg'or modellarni tahlil qilish va ularni milliy hamda mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida xizmatlar sektorini rivojlantirishning samarali mexanizmlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston mintaqalarida xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So'nggi o'n yilliklarda xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlardan biriga aylanib, mintaqalar barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda xizmatlar sektorining mintaqaviy iqtisodiyotidagi o'rni, uning tarkibiy tuzilmasi, raqamlashtirish darajasi va innovatsion salohiyati barqaror rivojlanish bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilingan.

D. Bell va A. Fisher tadqiqotlarida postindustrial jamiyat konsepsiyasi asosida xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishdagi ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ularning ishlarida xizmatlar sektorining kengayishi mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv keyinchalik mintaqaviy rivojlanish modellarida keng qo'llanila boshlagan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xizmatlar sohasi mintaqaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida qaraladi. Jahon bankining "World Development Report" hisobotlarida xizmatlar sektorining rivojlanishi hududiy iqtisodiyotlarda diversifikatsiyani kuchaytirishi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashi hamda bandlik darajasini oshirishi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini tahlil qilgan P. Krugman va M. Porterning ilmiy ishlarida xizmatlar sohasi klasterlashuv va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikricha, transport, logistika, moliyaviy va biznes xizmatlarining rivojlanishi sanoat tarmoqlarining ham samaradorligini oshirib, mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi.

Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribasini o'rgangan tadqiqotchilardan K. Lee, J. Lin, Y. Zhang xizmatlar sohasining raqamlashtirilishi va innovatsion xizmatlar ya'ni, fintex, elektron savdo, aqlli logistika kabilar mintaqaviy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etadilar. Ushbu tadqiqotlarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash,

infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiyalar xizmatlar sektorining jadal o'sishini ta'minlagani ko'rsatib berilgan.

Rossiya olimlari, jumladan A. Tatarkin va L. Abalkinlarning ilmiy ishlarida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining institutsional asoslari, hududiy xususiyatlarga mos rivojlanish modellari tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda xizmatlar sohasi ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va ekologik xizmatlar orqali mintaqalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Ushbu yondashuv xizmatlar sohasini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi tizim sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasini rivojlantirish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon innovatsiyalar, raqamlashtirish, institutsional islohotlar va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishni tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi XXI asrda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan biri sifatida shakllandi. Bu borada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasining jadal taraqqiy etishi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi bandligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va turmush darajasini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy hamda mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlardan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning asosiy "drayveri" bo'lib hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim, tibbiyot, logistika, turizm va professional xizmatlar yuqori qo'shimcha qiymat yaratadi.

Xizmatlar sohasi hozirgi kunda barcha rivojlangan iqtisodiyotlarda, shuningdek, "rivojlanayotgan" yoki "o'sib kelayotgan" deb ataluvchi ko'plab mamlakatlarda ham yalpi ichki mahsulot va bandlik nuqtai nazaridan eng katta ulushni egallaydi. Shunga qaramay, ushbu soha sanoat (ishlab chiqarish) tarmog'iga nisbatan ancha kam tadqiq etilgan bo'lib, faqat so'nggi uch o'n yillikda ushbu holat o'zgarishni boshladi. Shu bilan birga, moliya, savdo, transport hamda turizm bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ayrim xizmat turlari bo'yicha sezilarli darajada tahliliy adabiyotlar mavjudligini ta'kidlash lozim. Har qanday holatda xizmatlar sohasi yangi texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, shuningdek, iqtisodiy globallashtirish ta'siri ostida juda muhim o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu jarayonlarda xizmatlar muhim rol o'ynaydi.

Mazkur o'zgarishlar ularning kelib chiqish sabablarini izohlash va hududiy hamda hududiy ta'sirini chuqur anglash uchun maxsus va keng qamrovli tahlillarni talab etadi.

Xizmatlar sohasining mintaqaviy va shahar miqyosidagi jihatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ayrim fakt va tendensiyalarni ko'rsatib beradi. Shubhasiz, xizmatlar sohasi mintaqaviy va shahar tahlilining yangi ilmiy yo'nalishlarida ustuvor o'rin egallashi lozim. Mazkur tadqiqot ana shu zaruratni asoslash hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim bo'lgan ayrim tadqiqot yo'nalishlarini ilgari surishni maqsad qilgan [1].

Rivojlangan davlatlar tajribasida xizmatlar sektorini barqaror iqtisodiy o'sish uchun xizmat tarmoqlarini infratuzilma bilan ta'minlash, innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun davlat va xususiy sektorni integratsiya qiluvchi, mintaqaviy klasterlar xizmatlar va ishlab chiqarishni birlashtirib, texnologik o'sish va eksport imkoniyatlarini kengaytiruvchi, raqamli xizmatlar (elektron hukumat, elektron tijorat va axborot xizmatlari) xizmatlar sektorining samaradorligini oshiradi. Bu borada global raqobatda kuchaytiruvchi, soliq imtiyozlari, investitsiya grantlari va infratuzilma investitsiyalari xizmatlar sektori uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi va mintaqaviy farqlarni bartaraf etishga imkon beruvchi qator mexanizmlar qo'llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlar xizmatlar sohasini barqaror mintaqaviy rivojlanish vositasi sifatida strategik davlat siyosati orqali xizmat tarmog'ini yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish [2], hududiy siyosatlar va shaharlashtirish zonalari orqali mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlash [3], klaster va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali xizmatlar va ishlab chiqarishni integratsiya etish [4], raqamli transformatsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali xizmat sektorining samaradorligini oshirish [5] kabi usullar bilan rivojlantirganlar. Ushbu yondashuvlar mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlab, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardosh xizmatlar bozorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi doirasida xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishning muhim institutsional va funksional omili sifatida talqin etishga yo'naltirilgan. Bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasi taqqoslama-iqtisodiy, institutsional va strukturaviy tahlil metodlari asosida o'rganiladi [6]. Bunda xizmatlar sohasi mintaqalar raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi tizim sifatida baholanadi. Ayniqsa, ushbu usullar orqali Janubiy-Sharqiy Osiyo (Xitoy, Malayziya, Indoneziya) hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari tajribasi o'rganiladi. Ushbu mamlakatlarda xizmatlar sohasi sanoat bilan uzviy integratsiyalashgan, logistika, transport, turizm va savdo xizmatlari orqali hududiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida rivojlantirilgan. Bu tajribani tahlil qilishda davlatning xizmatlar sohasidagi roliga alohida e'tibor qaratiladi [7]. Ilmiy xulosalarga ko'ra rivojlangan mamlakatlarda davlat xizmatlar sohasida to'g'ridan-to'g'ri aralashuvdan ko'ra, qo'llab-quvvatlovchi institutlar yaratadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xizmatlar sektorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanib, hududiy xizmatlar infratuzilmasi barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi [8]. Tadqiqotlarda xorijiy tajribani to'liq ko'chirish emas, ya'ni mintaqaning iqtisodiy salohiyati, demografik xususiyatlari, resurs bazasi, hisobga olingan holda adaptatsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi [9]. Unga ko'ra, xizmatlar sohasini

rivojlantirish mintaqalararo nomutanosiblikni kamaytiradi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Shunisi muhimki, to'plangan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasining rivojlanishi ishlab chiqarish tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ya'ni, xizmatlar sohasi real sektorni qo'llab-quvvatlovchi va uning samaradorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

- AQSh tajribasi. AQShda xizmatlar sohasini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning qariyb 77 foizini tashkil etadi. AQSh tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, xizmatlar sohasini rivojlantirish innovatsiya, tadbirkorlik va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Mintaqaviy darajada xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun maxsus klasterlar tashkil etilgan. Masalan, Kaliforniyada IT va raqamli xizmatlar, Nyu-Yorkda moliyaviy xizmatlar, Floridada turizm va servis xizmatlari jadal rivojlangan. Davlat tomonidan xizmatlar sohasiga soliq imtiyozlari, grantlar va venchur moliyalashtirish mexanizmlari keng qo'llaniladi.

AQShda xizmatlar sohasi ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va texnologiyalar bo'yicha yetakchilik qiladi. Federal va shtat darajasida kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari xizmatlar ko'lamini kengaytirishda muhim omil bo'lmoqda. AQSh rag'batlantirish mexanizmlari va xizmatlar innovatsiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Mamlakatda xizmatlar sektori milliy iqtisodiy o'sishning asosiy komponenti bo'lib hisoblanadi. Ularning tajribasi raqamli innovatsiya va xizmatlar samaradorligini oshirish, xizmatlar sektori raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilib, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda qo'shimcha infratuzilma, moliyaviy bozorlar, ishchi kuchini tayyorlash dasturlari xizmatlar sektoridagi start-up va kichik biznesni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat siyosati texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda xizmat ko'rsatish kompaniyalarining eksport salohiyatini kengaytirdi [10].

- Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xizmatlar sohasi barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida rivojlantiriladi. Ushbu davlatlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish mintaqaviy siyosat bilan uzviy bog'langan. Ushbu mamlakatlar tajribasida "aqli ixtisoslashuv" konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, har bir mintaq o'zining raqobat ustunliklariga mos xizmat turlarini rivojlantiradi. Masalan, turizm va madaniy xizmatlar va transport-logistika xizmatlari ustuvor bo'lib hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi xizmatlar sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantiradi. Shu tarzda yuqori daromadli xizmat tarmoqlarini shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar xizmatlar va ishlab chiqarish o'rtasida raqobatbardoshlik va barqaror taraqqiyotni kuchaytiradi [11].

- Germaniya tajribasi. Germaniyada muhandislik va logistika xizmatlari, klaster konsepsiyasi asosida sanoat va xizmatlar sektorlarini integratsiya qilish orqali mintaqaviy o'sish ta'minlanadi. Ushbu holatda biznes, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat organlari hamkorligi kuchaytiriladi [12]. Mamlakatda xizmatlar sohasi sanoat bilan integratsiyalashgan tarzda rivojlangan. "Industrie 4.0" konsepsiyasi doirasida texnik xizmatlar, muhandislik, konsalting va IT xizmatlari yuqori darajada avtomatlashtirilgan. Hududiy markazlarda ixtisoslashgan xizmat klasterlari yaratilgan.

- Buyuk Britaniya tajribasi. Xizmatlar tarmog'ining mustahkam asosini yaratishga qaratilgan Buyuk Britaniyada xizmatlar sektori moliya, biznes xizmatlari, turizm va ta'lim kabi yo'nalishlar asosiy o'sish drayveri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi. Ushbu sektorni rivojlantirish uchun hukumat sanoat siyosatida xizmatlar sektorini yuqori texnologiyalar va kreativ xizmatlar yo'nalishiga ko'rsatdi va hududiy o'sish strategiyalari orqali o'sish qutblari (Londondan tashqaridagi shimoliy mintaqalar) uchun qo'shimcha investitsiyalar jalb qildi [13]. Mamlakatda "Urban Enterprise Zones" siyosati orqali ayrim shaharlar va mintaqalarda biznesni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari, tartib va qoidalarining soddalashtirilishi, ijaraga arzon infratuzilma va sarmoyadorlar uchun ko'makchi xizmatlar shakllantirildi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirdi va xizmatlar tarmog'ida yangi korxonalar ochilishiga turtki berdi [14].

- Yaponiya tajribasi. Yaponiyada xizmatlar sohasini rivojlantirish texnologik taraqqiyot va inson kapitaliga tayanadi. Yaponiyada xizmatlar sohasi iqtisodiyotning qariyb 70 foizini tashkil etadi. Bu yerda ta'lim, tibbiyot, moliyaviy xizmatlar va servis robototexnikasi keng rivojlangan. Yaponiya tajribasi ko'rsatadiki, xizmatlar sektori o'sishi faqat hajm bilan chegaralanmaydi, ya'ni uning mahsuldorlikni oshirishga e'tibor beriladi. Ushbu maqsadda xizmatlar uchun maxsus texnologik yechimlar va standartlar yaratiladi. Resurslarni samarali taqsimlash orqali xizmatlar yuqori qo'shilgan qiymatli yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Bu strategiya yangi ish o'rinlari yaratish va barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi [15].

- Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya tajribasida raqamli xizmatlar va startap ekotizimi muhim o'rin tutadi. Davlat tomonidan xizmatlar sohasida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus fondlar tashkil etilgan. Bu mamlakatda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar qisqartirilmoqda. Janubiy Koreya axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlar asosida xizmatlar sektorini tubdan o'zgartirdi. Elektron hukumat, onlayn konsalting, telemeditsina kabi xizmatlar hatto chekka hududlarga ham kirib borgan. Bu esa mintaqalar o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qilgan.

- Xitoy tajribasi. Xitoyda xizmatlar sohasini rivojlantirish so'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mamlakatda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55 foizdan oshgan. Xitoy tajribasining o'ziga xosligi sifatida xizmatlar sohasini sanoatlashtirish va raqamlashtirishga asoslanadi.

- Singapur tajribasi. Singapurda xizmatlar sohasi moliyaviy, logistika va turizm xizmatlari rivojiga alohida e'tibor qaratilgan. Hukumat xizmatlar sohasini raqamlashtirish orqali byurokraziyani qisqartirib, kichik bizneslar uchun qulay muhit yaratgan. "Smart Nation" strategiyasi xizmat ko'rsatish sifatini yuqori bosqichga olib chiqdi. Mamlakatda mintaqalar kesimida xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun maxsus iqtisodiy zonalar va raqamli platformalar joriy etilgan. Turizm, elektron savdo, logistika va moliyaviy texnologiyalar xizmatlari yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda.

- Hindiston tajribasi. Mamlakatda xizmatlar sohasi iqtisodiy o'sishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi. Hindistonda IT va outsorsing xizmatlari mamlakat iqtisodiyotini global bozorga integratsiya qilishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali eksport

salohiyatini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

- Rossiya tajribasi. Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida xizmatlar sektori muhim tuzilma bo'lib, YaIM tarkibida asosiy ulushni egallaydi. Oxirgi statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, xizmatlar iqtisodiyotning taxminan 62,3 % dan ortig'ini tashkil qiladi. Bu esa sanoat va qishloq xo'jaligidan ancha katta ulushni ko'rsatadi [16]. Ushbu strukturaviy o'rinni tahlil qilish nuqta nuqtai nazaridan xizmatlar sektori xalqaro tajribada industrial davrdan post-industrial iqtisodiyotga o'tishda xizmatlar sektori talab qilinadigan bozor mexanizmlarini shakllantiradi. Rossiya iqtisodiy islohoti (1990-y.) natijasida xizmatlar sektori xizmatlar asosiy iqtisodiy faoliyat turi sifatida o'sdi.

Mamlakatda so'nggi yillar Purchasing Managers' Index orqali xizmatlar sektorining faolligi o'lchanib boriladi. 2024-yil boshida xizmatlar sektorining o'sishi sekinlashgan, xarid qilish indeksi 51,1 ga tushgan. Bu raqam umumiy kengayish bo'lsa-da, o'sish sur'atining sust ekanini bildiradi. Asosiy omillar sifatida talab susayishi, logistika va mehnat resurslari bilan bog'liq cheklovlar bo'lgan. 2025-yil oxirida xizmatlar sektori faoliyati biroz kuchaygan bo'lsa-da, bandlik o'sishi pasaygan va ishchi kuchi kamaygan. Bu esa sektorning salohiyatini kengaytirishda mehnat bozori omillari muhim ekanini ko'rsatadi [17]. Ushbu tendensiyalar xizmatlar sektorini barqaror rivojlantirishda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Rossiyada xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid aniq paketlar mavjud bo'lsa-da, iqtisodiy siyosat turli sohalarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Masalan, Rossiya iqtisodiy rivojlanish vazirligi o'z rasmiy saytida turli strategiyalar, jumladan barqaror mintaqaviy rivojlanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bo'yicha faoliyat olib borishini ta'kidlaydi [18]. Biroq, xizmatlar sektori uchun mehnat resurslari yetishmovchiligi muammosi mavjud. Bu holat Rossiyaning barcha iqtisodiy sektorlari, xususan xizmatlar uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu bois, ko'plab ekspertlar Rossiyada xizmatlar sektorining to'liq potensialini amalga oshirish uchun mehnat importi va malakali migratsiyani rag'batlantirishni taklif qiladilar [19].

Rossiyaning bozor qoidalarini liberallashtirish va integratsiya jarayonlari, jumladan xizmatlar bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi erkin savdo shartnomalari, xizmatlar bozorini kengaytirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu boshqaruv modeli regional xizmatlar savdosini oshirish imkonini beradi [20]. Mamlakatda yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan markazlar, xususan Skolkovo innovatsiya markazi kabi platformalar, xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish va texnologik xizmatlar tarmog'ini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa xizmatlar sektorini yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarga yo'naltiradi [21]. Shu bilan Rossiyaning iqtisodiy strukturasi bo'yicha xizmatlar sektori boshqa mamlakatlardagi trendlarni aks ettiradi. Ya'ni, bu postindustrial iqtisodiyot spesifikasiga mos keladi, ya'ni xizmatlar sektori mamlakat YaIMiga katta ulush qo'shadi.

Ilmiy adabiyotlar tadqiqi esa shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektori barqaror rivojlanish uchun ikki tomonlama ahamiyatga ega. Ya'ni, ijtimoiy barqarorlik xizmatlar iqtisodiyoti (ta'lim, sog'liqni saqlash va transport) aholi farovonligini oshiradi va bandlikni ta'minlaydi. Iqtisodiy diversifikatsiyalashda xizmatlar turli tarmoqlar bilan

bog'langan bo'lib, ishlab chiqarish sektoridan mustaqil rivojlanish imkonini beradi [22]. Shunday ekan, Rossiyaning xizmatlar sektori salmoqli iqtisodiy rol egallaydi hamda barqaror mintaqaviy va milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylangan. Sektor samaradorligi, talab o'zgarishlariga moslashuvi, mehnat bozori va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror o'sish erishish mumkin. Bu tajriba O'zbekiston va boshqa mintaqaviy sharoitlar uchun ilmiy asosli siyosat yondashuvlarini shakllantirishda foydali bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning ayrim davlatlar tajribasi quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi¹

Davlatlar nomi	Xizmatlar sohasining YaMMdagi ulushi	Ustuvor xizmat yo'nalishlari	Rivojlantirish mexanizmi	Mintaqaviy barqarorlikka ta'siri
AQSh	75-80 %	Moliyaviy xizmatlar, IT, konsalting, ta'lim va tibbiyot	Innovatsion klasterlar, raqamli platformalar va xususiy sektor yetakchiligi	Yuqori bandlik, yuqori qo'shimcha qiymat va hudud raqobatbardoshligi
Germaniya	65-70 %	Logistika, muhandislik xizmatlari va sanoat servislari	"aqli ixtisoslashuv" va davlat-xususiy sheriklik	Sanoat va xizmatlar integratsiyasi va hududiy mutanosiblik
Fransiya	70-75 %	Turizm, madaniy xizmatlar, transport va ta'lim	Milliy mintaqaviy dasturlar va servis infratuzilmasi	Turizm orqali hududiy daromadlar o'sishi
Yaponiya	68-72 %	Tibbiyot, ta'lim, moliyaviy xizmatlar va servis robototexnika	Texnologik innovatsiyalar va inson kapitali	Demografik barqarorlik va xizmat sifati oshishi
Janubiy Koreya	60-65 %	Raqamli xizmatlar, startaplar va e-commerce	Davlat tomonidan qo'llab-	Yoshlar bandligi va hududiy

¹ Muallif ishlanmasi.

			quvvatlash va raqamli platformalar	innovatsiya
Xitoy	55-60 %	Elektron savdo, logistika, turizm va moliyaviy texnologiyalar	Maxsus iqtisodiy zonalar va raqamlashtirish	Mintaqalar rivojida farqni qisqartirish
Hindiston	55-60 %	IT-outsorsing va biznes xizmatlar	Eksportga yo'naltirilgan servis siyosati	Valyuta tushumlari va xizmat eksporti o'sishi

Ushbu keltirilgan 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish asosi bo'lib hisoblanadi. AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida xizmatlar sohasining yuqori ulushi innovatsiya, raqamli texnologiyalar va yuqori malakali inson kapitali bilan bog'liq. Ushbu hududlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada xizmatlar sohasini sanoat bilan integratsiya qilish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bunda xizmatlar sohasi ishlab chiqarish tarmoqlarining samaradorligini oshiruvchi muhim omilga aylanadi.

Xorijiy tajriba shuni tasdiqlaydiki, xizmatlar sohasini strategik rejalashtirish, hududiy ixtisoslashuv va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligi, aholi bandligi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, xorijiy mamlakatlar tajribasi quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

xizmatlar sohasini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi;

mintaqaviy ixtisoslashuv xizmatlar sohasi samaradorligini oshiradi;

innovatsiya va raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini ta'minlaydi;

davlat va xususiy sektor hamkorligi xizmatlar sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda xorijiy tajribani qo'llash istiqbollari. O'zbekistonda xizmatlar sohasi hali to'liq raqamlashtirilmagan va hududlararo nomutanosiblik mavjud. Bu borada xizmat ko'rsatish klasterlarini tashkil etish, raqamli xizmatlarni joriy qilish, kichik xizmat ko'rsatuvchi bizneslarni subsidiyalash orqali mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish mumkin. Xizmatlar sohasini takomillashtirish barqaror mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga asoslanadi. O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni moslashtirish orqali hududlararo tafovutni kamaytirish va xizmatlar eksportini oshirish imkoniyati mavjud.

XULOSA. Xulosa shuki, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy

etish orqali mintaqalar iqtisodiy o'sishini jadallashtirish, aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Ushbu xorij tajribasini o'rganish O'zbekiston mintaqalarida xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, mintaqalar iqtisodiy, demografik va resurs salohiyatini hisobga olgan holda xizmatlar sohasini ixtisoslashtirish, raqamli xizmatlarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Juan R. Cuadrado-Roura. Service industries and regional analysis. New directions and challenges. // Investigaciones Regionales - Journal of Regional Research, 36 (2016). - p. 107-127.
- [2]. United Nations Economic Commission for Europe. Promoting innovation in the services sector review of experiences and policies. - United Nations, New York and Geneva, 2011.
- [3]. https://en.wikipedia.org/wiki/Urban_enterprise_zone
- [4]. https://en.wikipedia.org/wiki/Cluster_development
- [5]. Hasanov H.O'. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda davlat xizmatlari sifatini baholash uslubi yotini takomillashtirish. PhD. dissertatsiya aforeferati. - Samarqand: SamISI, 2025.
- [6]. Ruzmetov B. Google Scholar. <https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=4HJbTnoAAAAJ>
- [7]. Ruzmetov B., Baxtiyarov Sh. Mintaqani barqaror rivojlanish maqsadlari asosida kompleks rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari. "O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari" Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani, - Buxoro: BuxDU, 14-15 aprel. 2025 yil,
- [8]. Ruzmetov B., Avezov M., Babadjanov J., Eshniyazova Yu., Panjiyeva N. Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 449, 04004 (2023)
- [9]. Ruzmetov B., Bakhtiyarov Sh., Jabbarova Z., Sattarova D., Mukhammadsolikh X. Improvement of Sustainable Economic Mechanisms for the Formation of Tourist and Recreational Clusters in the Khorezm Region of the Republic of Uzbekistan. Journal of Lifestyle & SDG'S Review. 2024.
- [10]. UN Trade & development. Services are powering growth. Here's how developing nations can catch up. 23 December, 2024.
- [11]. United Nations Economic Commission for Europe. Promoting innovation in the services sector review of experiences and policies. United Nations, New York and Geneva, 2011.
- [12]. Jumanioyozov F., Xudarganov T. Hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishining xorij tajribasi. // Молодые ученые, 3(18), 2025.
- [13]. Zdanowska N., Morphet R. Decentralising the United Kingdom: the Northern Powerhouse strategy and urban ownership links between firms since 2010. General Economics. 2021.
- [14]. https://en.wikipedia.org/wiki/Urban_enterprise_zone
- [15]. Qalmuratov B.S., Allamuratova G.M. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat

ko'rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirishni ilg'or xorijiy tajribalari. // International scientific journal Management, Marketing and Finance, Volume2, Issue2, February 2025.

[16]. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rossiya_iqtisodiyoti

[17]. Reuters. <https://www.reuters.com/markets/europe/russia-services-sector-grows-slowest-rate-13-months-pmi-survey-shows-2024-03-05/>

[18]. Ministry of Economic Development of the Russian Federation. <https://en.economy.gov.ru/>

[19]. Top banker says Russia needs millions of skilled migrants to boost growth. By Reuters. October 24, 2025

[20]. Commonwealth of Independent States Agreement on Free Trade in Services, Establishment, Operations and Investment. https://en.wikipedia.org/wiki/Commonwealth_of_Independent_States_Agreement_on_Free_Trade_in_Services%2C_Establishment%2C_Operations_and_Investment

[21]. Skolkovo Innovation Center. https://en.wikipedia.org/wiki/Skolkovo_Innovation_Center

[22]. Salomov T. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda xorij tajribasi. // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, Vol.2, No.10 (2024).

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

